

**BUGUNGI KUNDA MAMLAKATIMIZDA HUNARMANCHILIKNING
RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.****Tursunov Nurullo Narzullayevich,***Termiz iqtisodiyot va servis universiteti**“Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti,
tarix fanlari doktori (DSc), Termiz (O‘zbekiston)**E-mail: nurullo2447603@gmail.com**Tel.: +998972447603***Ulug‘bekov Akobir Ulug‘bek o‘g‘li,***Termiz iqtisodiyot va servis**universiteti “Pedagogika va ijtimoiy fanlar” fakulteti**Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi hunarmandchilik va hunarmandchilik markazlarini tashkil etish chora tadbirlari kōrildi

Kalit Sōzlar: Hunarmandchilik buyumlari, hunarmandchilik uyushmasi, kosiblar, kulollar, mebel yasovchilar, chokli buyum ustalari.

Mamlakatimizda hunarmandchilik qadimdan taraqqiy topgan, turli bejirim buyumlar yasash, kundalik hayotda asqatadigan jihozlar tayyorlash, shu orqali o‘z mehnati bilan odamlarga naf keltirish qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Milliy hunarmandchilikdagi avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an‘analar yoshlar ma‘naviyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Yoshlar tomonidan xalq hunarmandchiligi an‘analarini, ma‘naviy qadriyatimizning sir-sanoatini to‘liq bilib olish, ularda milliy g‘urur va iftixor hissini uyg‘otadi, fikrlash doirasi kengayadi, milliy o‘zlikni anglaydi.

Yoshlarni maqsadli kasb-hunar egallashga tayyorlash, ularga zamonaviy sharoitda kichik biznes, tadbirkorlikka oid bilimlarni o‘rgatish lozim. Bu esa ularning mamlakat iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotini ta‘minlash uchun mehnat qilishlari, o‘z vaqtlarini foydali ishlarga sarflashlariga ko‘maklashadi. Mamlakatimizda hunarmandlar uchun yaratilayotgan qulayliklar xalqimizning boy va bebaho merosini qayta tiklash hamda milliy an‘analarimizni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Hunarmandchilik tadbirkorligini taraqqiy ettirish har qanday mamlakat uchun muhim, chunki bu soha aholini ish bilan band etishga, hunarmandlarning turmush farovonligini oshirishga, o‘zlaridagi mavjud qobiliyatni yuzaga chiqarishga, shuningdek, asriy milliy urf-odatlar va qadriyatlarni avloddan-avlodga o‘tishiga yordam beradi. O‘zbekiston hududida hunarmandchilik kasbi avloddan-avlodga meros bo‘lib kelgan. Otadan bolaga, ustozdan shogirdga o‘tib hunarmanchilik yanada sayqallanib, rivojlanib borgan.

Hunarmandlar tayyorlashning ota-bola, ustoz-shogird shakli asrlar davomida shakllanib, bir necha ming yillik tarixida ko‘plab hunarmandlar avlodini tarbiyalashda asosiy, shu bilan birga yagona usuli sifatida saqlanib qoldi va tizimlashib bordi. Ammo, yaqin o‘tmishimizda hunarmandchilikning ahvoli, uning salbiy oqibatlarini tadqiq etish bu sohaning haqiqiy ahvolini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

Bugungi kunda hunarmandchilikning ahvoli, uning turli sohalarini saqlab qolishda iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish va ularni ish bilan ta‘minlash, ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash singari omillariga alohida e‘tibor berish kerak. Buning uchun ayniqsa, mamlakatimizda eksport salohiyatini, ya‘ni hunarmandchilik mahsulotlarini xorijga olib chiqish, sotish va sifatini oshirish hisoblanadi. Demak, yurtimizda sanoat korxonalarini, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida e‘tibor qaratilib, bu borada huquqiy asoslar yaratilgani holda, ularning ijrosi izchil ta‘minlangani samarasidir.

Respublika “Hunarmand” uyushmasi markazi a‘zolari 2008 yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra 34 milliard 510 million so‘mlik xalq amaliy san‘ati va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarib, aholiga va xorijlik mehmonlarga o‘z mahsulotlarini sotdilar. Viloyatlarda hunarmandchilik mahsulotlarini turli sohalarida xaridorgir bozor ko‘rinishida tayyorlab, daromad ko‘ra boshladilar. Bularga quyidagilar kiradi: kosiblar 3 milliard 36 million 751 ming so‘m, chokli buyumlar ustalari 8 milliard 379 million 979 ming so‘m, kulollar 1 milliard 290 million 59 ming so‘m, mebel yasovchi ustalar 2 milliard 937 million 979 ming so‘m, yog‘ochdan bezakli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi ustalar 613 million 302 ming so‘m, milliy chopon tikuvchilar 324 million 68 ming so‘mlik hissa qo‘shdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi “Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, mahsulotlarni eksport qilishga ko‘maklashish buyurosi tashkil etildi.

Boysun shahri hunarmandlari tomonidan tikilgan dunyodagi eng katta so‘zana 2017 yilning 5-10 aprel kunlari Termiz shahrida o‘tkazilgan baxshichilik san‘ati festivalida ilk bor namoyish etilgandi. Boysun tumanining Kofirun, Dashtig‘oz, Olachopon, Qizilnavur, Besherkak, Panjob, Machay, To‘da, Avlod, Tillakamar, Xo‘jabo‘lg‘on, Sariosiyo kabi qishloqlarida gilamdo‘zlik, so‘zana, kashtachilik, to‘n tayyorlash, boysuni do‘ppi va boshqa mahsulotlarni tayyorlash an‘anasi saqlanib qolingani. Mazkur kashtachilik namunalari o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘lib, naqshlari bir-birini takrorlamaydigan va ularda oy, quyosh ramzlari bilan birgalikda Boysun tog‘larining go‘zal tabiati mujassamlashgandir. Surxon so‘zanasining namoyish etilishi festival tomoshabinlari, ayniqsa, xorijlik mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Prezidentimizning 2017 yil 17 noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoniga muvofiq respublikamizning barcha hududlarida “Hunarmandchilik markazlari” ni tashkil qilish vazifasi belgilandi. Farmonga ko‘ra, “Hunarmandchilik markazlari” ni ikki qavatli ko‘rinishda qurilib, birinchi qavatda hunarmand ustaxonasi va savdo do‘koni, ko‘rgazma zallari joylashgan. Ikkinchi qavatida esa hunarmandlar yashashi uchun barcha sharoitlar yaratilishi lozim bo‘lgan.

Ma’lumki, O‘zbekistonda hunarmandlar tomonidan ishlab chiqariladigan buyumlar va tovarlar (ishlar, xizmatlar) yo‘nalishlar 25 dan 34 taga yetdi. Hozirda ular ichki va tashqi bozor uchun mahsulotlar ishlab chiqarishmoqda. Bu mahsulotlar o‘zining sifati, badiiy jihatdan yuksakligi, tabiiyligi va milliy o‘zligimiz, tarixiy an‘analarimizni o‘zida uyg‘unlashtirgani bilan ham ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san‘atini rivojlantirish orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an‘analarini saqlab qolish, band bo‘lmagan aholi, ayniqsa yoshlar va ayollarning hunarmandchilik bilan shug‘ullanishiga imkoniyat yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga yaratib berilayotgan ana shunday qulay shart-sharoit va imkoniyatlar tufayli hunarmandlarimiz nafaqat ichki, balki tashqi bozorlarning ham faol ishtirokchisiga aylanishmoqda. Xorijiy davlatlarning ishbilarmonlari bilan hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. -474 b.
2. Karimov I.A. Oila farovonligi-millat farovonligi / Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. -Toshkent: O‘zbekiston, 1998.-400 b.
3. Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi. -Toshkent: “Yangi nashr”, 2015.-160 b.
4. Ismoil al-Buxoriy. Al-jome’ as-sahih. 3-kitob. -Toshkent, 1997.-B. 509; Boboxonov Sh.Z. Islomda aqiqa masalasi // Sharqshunoslik.-Toshkent, 1994. №5.-B.104.
5. Tashbayeva T.X., Savurov M.D. Novoye i traditsionnoye v bitu selskoy semi uzbekov. -Tashkent, 1989.-163 s.